

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning yanvar-iyunida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 4947,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 3,5 % ga o'sdi.


2018 yilning yanvar-iyun oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2677,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga oshdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish

	mlrd.so'm		2017 yil yanvar-iyuniga nisbatan % da
	2017 yil yanvar-iyun	2018 yil yanvar-iyun	
<b>I. YaHM</b>	<b>3511,5</b>	<b>4947,9</b>	<b>103,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3276,8	4375,9	103,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	234,7	572,0	104,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>3276,8</b>	<b>4375,9</b>	<b>103,5</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	323,1	442,0	102,6
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1279,8	1953,2	103,4
sanoat	983,1	1587,2	104,0
qurilish	296,7	366,0	101,5
Xizmatlar	1673,9	1980,7	103,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	289,5	360,3	103,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	366,5	410,1	104,9
boshqa xizmat tarmoqlari	1017,8	1210,3	103,3

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, sanoat (qurilishni qo'shgan holda) – 103,4 % (YaHM tarkibidagi ulushi 44,7 %), tashish va saqlash axborot va aloqa - 104,9 % (9,4 %), xizmatlar – 103,7 % (45,2 %) ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-iyunda YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari





***iqtisodiy faoliyat turlari***

Qoraqalpogiston Respublikasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 88,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlarning esa, 11,6 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 0,2 % punktga kamaydi va hisobot davrida 10,1 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo`shgan holda) tarmoqning ulushi 5,6 % punktga oshdi va 44,7 % ni tashkil etdi. Xizmatlar soxasining YaHM tarkibidagi ulushi 2018 yil yanvar-iyunda 45,2 % ni tashkil etdi va 2017 yil mos davri (51,0 %) bilan tasdiqlanganda 5,8 % punktga kamaydi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo`yicha tarkibi  
(jamiga nisbatan foizda):**




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqning yalpi qo`shilgan qiymati
- Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi
- Sanoat (qurilishni ko`shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 8,2 % ni (2017 y. – 8,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 9,4 % ni (11,2 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 27,6 % ni (31,0 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi  
(jamiga nisbatan foizda):**

**2017 yil  
yanvar-iyun**



**2018 yil  
yanvar-iyun**



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

**Statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma  
axborot-tahliliy ishlar bo'limi**

**Tel.: (0-361) 222-74-58;**

**(0-371) 230-82-03**